O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
ELLIKQAL’A TUMANI
HOKIMI QARORI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ
ELLIKQALA RAYONÍ
HÁKIMI SHESHIMI

2022 - yil 22 - iyul 217-13-194-Q/22 Ellikqal’a tuman hokimligi

Ellikqal’a tumanida transport harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq

QARORQILAMAN:

1. Ellikqal’a tumanida piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, Ellikqal’a tumani hududidagi 4k51a “Bo‘ston sh. –Qirqqizobod OFYga 0-16 km avtomobil yo‘lining 5-6-km oralig‘ida 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Ellikqal’a tuman IIBYXXB (N.Allamov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (T.Raxmanov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan manzilga 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatilishini ta’minlasinlar va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Davr ko‘zgusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Jarasbaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.S.Avezov**